



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 26-noyabr

672-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni sportga jalb etish orqali jismoniy reabilitatsiya qilish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 8-noyabrdagi PQ–389-sonli qarori hamda viloyat hokimining 2024-yil 20-noyabrdagi 561-6-0-Q/24-sonli qarori ijrosi haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni sportga jalb etish orqali jismoniy reabilitatsiya qilish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 8-noyabrdagi PQ–389-sonli qarorini, shu mazmundagi viloyat hokimining 2024-yil 20-noyabrdagi 561-6-0-Q/24-sonli qarori ijrosini tumanda ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 211-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 8-noyabrdagi PQ–389-sonli qarori ijrosi yuzasidan, viloyat hokimining 2024-yil 20-noyabrdagi 561-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va amalda ijrosini ta‘minlash uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 8-noyabrdagi PQ–389-sonli qarori bilan: belgilanishicha;

a) 2024-yil 15-dekabrden boshlab: sport bilan shug‘ullanish istagidagi nogironligi bo‘lgan shaxslarning murojaatiga ko‘ra ularga “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari (keyingi o‘rinlarda– “Inson” markazlari) tomonidan davlat mulkida bo‘lgan jismoniy tarbiya-sog‘lomlashtirish va sport inshootlarida sport bilan bepul shug‘ullanish uchun yo‘llanmalar berilishi;

sport bilan bepul shug‘ullanish imkoni yaratilgan jismoniy tarbiya sog‘lomlashtirish va sport inshootlari ro‘yxati tegishincha Sport vazirligi, Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi (keyingi o‘rinlarda- Agentlik) bilan birgalikda tasdiqlanishi hamda doimiy yangilab borilishi;

b) 2025-yil 15-yanvardan boshlab nogironligi bo‘lgan shaxslarning davlat mulkida bo‘lgan jismoniy tarbiya-sog‘lomlashtirish va sport inshootlarida tashkil etilgan sport to‘garaklaridagi ishtiroki “Inson” markazi tomonidan yo‘llanma berilgan kundan boshlab har olti oyda bir marotaba joyiga chiqqan holda yoki “ERPR-sport” yagona elektron boshqaruv tizimi orqali monitoring qilib borilishi;

Agentlik 2025-yil yakuniga qadar ko‘z va tayanch harakat a‘zolari kasalliklariga chalingan nogironligi bo‘lgan shaxslar, shu jumladan, bolalarga jismoniy tarbiya sog‘lomlashtirish va sport inshootlariga borib-kelishiga ko‘maklashish maqsadida sport bilan shug‘ullanish istagidagi nogironligi bo‘lgan shaxslar soni yuqori bo‘lgan hududlarda davlat ijtimoiy buyurtmasi orqali nodavlat notijorat tashkilotlar yoki ko‘ngillilarni jalb etgan holda hamrohlik xizmatini bosqichma-bosqich joriy etish choralarini ko‘rishi. Bunda belgilanishicha;

davlat ijtimoiy buyurtmasi orqali nodavlat notijorat tashkilotlar yoki ko‘ngillilar Agentlik yoki uning hududiy boshqarmalari tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri jalb etilishi;

“Inson” markazlari huzurida ko‘ngillilar guruhlarini tashkil etishga ruxsat etilishi;

davlat ijtimoiy buyurtmasi orqali nodavlat notijorat tashkilotlar yoki ko‘ngillilarni jalb etish Ijtimoiy himoya davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilishi;

Agentlikning 2025-2026-yillarda alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta‘lim muassasalari va “Muruvvat” internat uylarida Ijtimoiy himoya davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan sport obyektlarini qurish, ta‘mirlash, jihozlash va ularda sport to‘garaklarini tashkil qilish taklifiga rozilik berilganligi;

Bunda:

alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta‘lim muassasalari va “Muruvvat” internat uylarida sport to‘garaklari tashkil qilinishi hamda ushbu to‘garaklarda kunduzgi qatnov xizmati yo‘lga qo‘yilishi;

alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta‘lim muassasalari va “Muruvvat” internat uylarining davolash jismoniy tarbiyasi bo‘yicha yo‘riqchilari adaptiv (nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun moslashtirilgan) sport turlari bo‘yicha qayta tayyorlov va malaka oshirish kurslariga jalb qilinishi nazarda tutilganligi;

O‘zbekiston milliy paralimpiya va Olimpiya qo‘mitalari ta‘sischiligida O‘zbekiston adaptiv sportturlari assotsiatsiyasi (keyingi o‘rinlarda- Assotsiatsiya) tashkil etilganligi;

O‘zbekiston milliy paralimpiya qo‘mitasining quyidagi takliflari ma‘qullanganligi:

O‘zbekiston milliy paralimpiya qo‘mitasining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo‘linmalari negizida har yili Davlat budjetidan Assotsiatsiya faoliyatini qo‘llab-quvvatlash uchun ajratilgan mablag‘lar doirasida Assotsiatsiyaning hududiy bo‘linmalarini tashkil etish hamda ularni Olimpiya va Paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlari binolariga tekin foydalanish huquqi asosida joylashtirishi;

O‘zbekiston milliy paralimpiya qo‘mitasi huzuridagi Paralimpiya sport turlari bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlash instituti negizida Adaptiv jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutini tashkil etish hamda mol-mulki va moliyalashtirish manbalari bilan birga Assotsiatsiya tuzilmasiga o‘tkazishi;

O‘zbekiston adaptiv sport turlari assotsiatsiyasining tashkiliy tuzilmasi 1-ilovaga muvofiq ma‘qullanganligi;

quyidagilar Assotsiatsiyaning asosiy vazifalari ekanligi inobatga olinganligi: adaptiv sport turlarini ommalashtirish va rivojlantirish bo'yicha davlat siyosatini amalga oshirishda ko'maklashishi;

adaptiv sport turlari bo'yicha nodavlat notijorat tashkilotlar va davlat organlari o'rtasida hamkorlikni ta'minlashi;

adaptiv sport turlari bo'yicha iqtidorli sportchilarni aniqlash, tanlash va saralash (seleksiya) hamda ularni professional sportchilar sifatida tayyorlash tizimini muvofiqlashtirishi;

davlat sport-ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini shakllantirishda hamda sport infratuzilmasi obyektlarining konsepsiyalari va boshqa loyiha hujjatlarini ishlab chiqishda ishtirok etishi;

adaptiv sport turlari bo'yicha trener, yo'riqchi-uslubchilar hamda boshqa mutaxassislarni qayta tayyorlash, malakasini oshirish va kasbiy rivojlantirishning zamonaviy va samarali tizimini joriy etishi;

davlat sport, ta'lim, ixtisoslashtirilgan muassasalarida bosqichma-bosqich adaptiv sport turlari bo'yicha to'garaklar tashkil etishda ishtirok etishi;

adaptiv sport turlari bo'yicha musobaqalar va tadbirlarni tashkil qilish va o'tkazishi;

adaptiv sport turlari bo'yicha terma jamoalar sportchilarini sport inventarlari, sport kiyimlari, tibbiy va farmakologiya, maxsus sport protez vositalari bilan ta'minlash hamda tibbiy ko'rikdan o'tkazishi;

adaptiv sport turlari bo'yicha yuqori mahoratli sportchilarni tayyorlash yuzasidan o'quv-mashq jarayonini tashkil etishi;

Assotsiatsiya va uning hududiy bo'linmalarini, Assotsiatsiyaga a'zo adaptiv sport turlari bo'yicha nodavlat notijorat tashkilotlarni saqlash, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlashi;

adaptiv sport turlarini rivojlantirish bo'yicha klublar va musobaqalarni tashkil etish hamda Assotsiatsiyaga a'zo adaptiv sport turlari bo'yicha nodavlat notijorat tashkilotlar bilan birgalikda xalqaro hamkorlikni rivojlantirishi;

belgilab qo'yilishicha, 2025-yil 1-fevraldan boshlab:

Adaptiv jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutida paralimpiya, karlar, ko'zi ojizlar hamda maxsus olimpiya va nogironligi bo'lgan shaxslar shug'ullanadigan boshqa sport turlari bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslari yo'lga qo'yiladi va kurs yakuni bo'yicha 4 yil muddatga amal qiladigan malaka sertifikatini berilishi;

Davlat budjetidan moliyalashtiriladigan sport maktablarida (keyingi o'rinlarda sport maktablari) tegishli moliya yili uchun ajratilgan mablag'lar doirasida malaka sertifikatiga ega trenerlarga adaptiv sport turlari bo'yicha qo'shimcha guruhlar tashkil etishga hamda nogironligi bo'lgan bolalar, o'smirlar va yoshlarni qabul qilishga ruxsat etilishi;

bunda oliy ta'lim muassasalarining adaptiv jismoniy tarbiya va sport, parasport ta'limi yo'nalishlari bitiruvchilaridan oliy ta'lim muassasasini tamomlagan vaqtdan boshlab 4 yil davomida adaptiv sport turi bo'yicha trener lavozimiga ishga kirish yoki sport guruhlarini tashkil etish uchun malaka sertifikatini talab etilmasligi;

nogironligi bo'lgan shaxslarga jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish va sport inshootlari hamda adaptiv sport turlari bo'yicha guruhlar tashkil etilgan sport maktablarini Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalining mobil ilovasi orqali tanlash imkoniyati yaratilishi;

sport maktablarida adaptiv sport turlari bo'yicha guruhlarini tashkil qilgan trenerlarning lavozim maoshini hisoblashda bazaviy tarif stavkalariga nisbatan 50 foiz miqdorda ustama hisoblanishi;

Bunda:

trenerlarga qo'shimcha haq va ustamalar miqdori, ushbu oshirilishni hisobga olmasdan, bazaviy tarif stavkasidan kelib chiqqan holda belgilanishi;

sport maktablarida adaptiv sport turlari bo'yicha guruhlarining tashkil etilganligi "Inson" markazi tomonidan monitoring qilinishi;

nogironligi bo'lgan shaxslarning sport muassasalarida adaptiv sport turlari bo'yicha guruhlardagi davomati va jismoniy tarbiya- sog'lomlashtirish va sport tashkilotlariga kelib-ketishi "YERP-sport" yagona elektron boshqaruv tizimining mobil ilovasi yordamida shaxsni biometrik identifikatsiya qilish texnologiyasi orqali monitoring qilib borilishi;

Agentlik, Sport vazirligi va Assotsiatsiyaning quyidagi takliflariga rozilik berilganligi;

uch bosqichli "Besh tashabbus paralimpiadasi" doirasidagi musobaqalar dasturiga karlar, ko'zi ojizlar va maxsus olimpiya sport turlarini kiritishi;

"Besh tashabbus paralimpiadasi" doirasida o'tkaziladigan ommaviy sport musobaqalari g'olib va sovrindorlari orasidan nogironligi bo'lgan iqtidorli shaxslarni saralab olish hamda ularni professional sportga yo'naltirish tizimini yo'lga qo'yishi;

2025-yildan boshlab har yili an'anaviy tarzda may oyining birinchi yakshanbasida respublikaning barcha hududlarida "Inson uchun" shiori ostida adaptiv sport turlari bo'yicha festival o'tkazish va uning doirasida xayriya marafonlarini tashkil etishi;

belgilanishicha, mazkur badda nazarda tutilgan sport tadbirlari va musobaqalarini o'tkazish bilan bog'liq xarajatlar Sport vazirligiga rivojlantirish dasturlari uchun ajratilgan hamda Agentlik mablag'lari hisobidan moliyalashtirilishi;

Assotsiatsiya Toshkent shahri Yashnobod tumani Olimpiya shaharchasiga tekin foydalanish huquqi asosida joylashtirilishi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 18-maydagi "Paralimpiya harakatini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5114-son qarorida "Chorvoq" erkin turistik zonasida kamida 50 gektarga teng bo'lgan yer uchastkasi jismoniy imkoniyati cheklangan va nogironligi bo'lgan shaxslar paralimpiya sport turlari bilan shug'ullanishi uchun sport obyektlari va inshootlarini barpo etish uchun ajratilganligi ma'lumot uchun qabul qilinganligi;

Belgilanishicha, mashgʻulot bazasining qurilishini moliyalashtirish Oʻzbekiston Respublikasi respublika budjetidan Agentlikka ajratilgan mablagʻlar va Ijtimoiy himoya davlat jamgʻarmasi mablagʻlari hisobidan amalga oshirilishi; quyidagilar:

Sport vazirligi: Assotsiatsiya bilan birgalikda ikki oy muddatda adaptiv sport turlari roʻyxatini tasdiqlasin va adaptiv sport turlarini Sport turlarining reyestriga kiritish choralari koʻrishi;

manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda uch oy muddatda qonunchilik hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan oʻzgartirish va qoʻshimchalar toʻgʻrisidagi takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritishi;

2025-yil 1-martga qadar sport maktablarida adaptiv sport turlari boʻyicha oʻquvchi-sportchilarni tayyorlashning barcha bosqichlarida sport-oʻquv guruhlarini shakllantirish va ularning sonidan kelib chiqib, oʻquv-mashq ishlari rejimining yillik soatlariga mazkur muassasalar uchun oʻzgartirish kiritish boʻyicha takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritishi;

Sogʻliqni saqlash vazirligi Agentlik bilan birgalikda olti oy muddatda jismoniy reabilitatsiya xizmatlari roʻyxati tasdiqlanishini hamda jismoniy reabilitatsiya xizmatlarining milliy standartlari ishlab chiqilishini taʼminlashi; quyidagilar:

Adaptiv sport turlarini rivojlantirish va jismoniy reabilitatsiya qilish tizimini takomillashtirish boʻyicha chora- tadbirlar dasturi 2-ilovaga muvofiq;

Surdlimpiya, Maxsus olimpiya, IBSA jahon oʻyinlari, Surdosiyo va Okeaniya, Maxsusolimpiya Yevropa yozgi oʻyinlari, shuningdek, Surdlimpiya, Maxsus olimpiya, IBSA jahon oʻyinlari dasturiga kiritilgan sport turlari hamda Amputantlar futboli boʻyicha jahon chempionati gʻolib va sovrindor sportchilari, ularni tayyorlagan trenerlarni Davlat budjeti mablagʻlari hisobidan ragʻbatlantirish miqdorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

Paralimpiyachilarning matonat maktabi faoliyatini samarali yoʻlga qoʻyish va paralimpiya sportturlarini yanada rivojlantirish boʻyicha respublika kengashi Adaptiv sport turlarini yanada rivojlantirish boʻyicha respublika kengashi sifatida qayta nomlansin hamda quyidagilar uning qoʻshimcha vazifalari etib belgilansin:

nogironligi boʻlgan shaxslarni sportga jalb qilish boʻyicha normativ-huquqiy hujjatlar ijrosini nazorat qilishda ishtirok etishi;

davlat organlarining nogironligi boʻlgan shaxslarni sportga jalb qilish boʻyicha oʻziga yuklatilgan vazifalarni oʻz vaqtida va samarali bajarishini taʼminlashi;

davlat organlari va tashkilotlariga nogironligi boʻlgan shaxslarni sportga jalb qilish boʻyicha funksiyalarini bajarishda tashkiliy jihatdan koʻmaklashishi; Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga 4-ilovaga muvofiq oʻzgartirishlar kiritilganligi maʼlumot uchun qabul qilinsin

3. Tuman sport maktabi (M.Abduqodirov) tegishli tashkilotlar bilan birgalikda, sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining kalendar rejalarini tasdiqlashda adaptiv sport turlari boʻyicha musobaqalar oʻtkazib borilishini nazarda tutsin.

4.Tuman iqtisodiyot va moliya boʻlimi (Z.Jurabayev) sport maktabi (M.Abduqodirov) tegishli tashkilotlar bilan birgalikda mahalliy budjetning qoʻshimcha manbalari va homiylik xayriya mablagʻlari hisobidan:

Tuman sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining kalendar rejalaridagi adaptiv sport turlari bo'yicha musobaqalar uchun mablag'lar ajratib borilishini;

Sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining kalendar rejasida nazarda tutilgan barcha adaptiv sport turlari bo'yicha O'zbekiston chempionati va kubogi musobaqalarida tuman terma jamoalar ishtirokini ta'minlasin.

5. Tuman sport maktabi (M.Abduqodirov), "Inson" ijtimoiy himoya markazi (E.Abduraxmanov), manfaatdor tashkilotlar va idoralar, bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 8-noyabrdagi PQ-389-sonli qarori talablari asosida ish tashkil etsin.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosari J.Raximov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov